



UNIVERSAL XALQARO ILMIY JURNAL

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific
Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://universaljurnal.uz)

Year: 2025 Issue: 2 Volume: 4

Published: 21.04.2025
<https://universaljurnal.uz>



International indexes

GOOGLE SCHOLAR
CROSSREF (OAK BAZA)
ZENODO
OPEN AIRE
EUROPUB
RESEARCHGATE (OAK BAZA)
SJIF

AYOLLARDA KO‘KRAK BEZI SARATONI KASALLIKLARI

¹Odilova Yorqinoy Kozimjon qizi., ²Axmedov Anvar Tursunboyevich

¹Andijon davlat universiteti biologiya ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

¹Andijon davlat universiteti biologiya Zoologiya va biokimyo kafedrasida o'qituvchisi
Uzbekistan

yorqinoy124@gmail.com

Annotatsiya. Ko'krak bezi saratoni ayollar orasida global miqyosda eng keng tarqalgan onkologik kasalliklardan biri bo'lib, O'zbekistonda ham sog'liqni saqlash tizimida muhim muammo sanaladi. Ushbu maqola ko'krak bezi saratonining epidemiologiyasi, etiologik omillari, diagnostika usullari va davolashning zamonaviy yondashuvlarini ilmiy asosda tahlil qiladi. Ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda 2020-yilda 4454 yangi holat qayd etilgan bo'lib, kasallikning erta aniqlanishi va davolash samaradorligi skrining dasturlari va genetik testlarning joriy etilishi bilan sezilarli yaxshilangan. Xavf omillari orasida irsiy predispozitsiya (BRCA1/2 mutatsiyalari), gormonal disbalans, turmush tarzi va ekologik omillar muhim o'rin tutadi. Diagnostikada mammografiya, ultratovush va biopsiya asosiy usullar sifatida qo'llaniladi, davolashda esa jarrohlik, radiatsiya, kimyoterapiya, gormonal va maqsadli terapiyalar integratsiyalashgan yondashuv sifatida qo'llanilmoqda. Maqola, shuningdek, O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimidagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan profilaktik choralar va skrining dasturlarining ahamiyatini ta'kidlaydi. Tadqiqot natijalari ko'krak bezi saratonini erta aniqlash va

davolashda innovatsion texnologiyalar va xalqaro tajribani mahalliy sharoitlarga moslashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: ko'krak bezi saratoni, ayollar onkologiyasi, epidemiologiya, xavf omillari, mammografiya, skrining, genetik mutatsiyalar, BRCA1/2, diagnostika, jarrohlik davolash, kimyoterapiya, gormonal terapiya, maqsadli terapiya, profilaktika, O'zbekiston, sog'liqni saqlash.

Аннотация: Рак молочной железы является одним из самых распространенных онкологических заболеваний среди женщин во всем мире, а также представляет собой серьезную проблему в системе здравоохранения Узбекистана. В статье представлен научно обоснованный анализ эпидемиологии, этиологических факторов, методов диагностики и современных подходов к лечению рака молочной железы. По имеющимся данным, в 2020 году в Узбекистане было зарегистрировано 4454 новых случая заболевания, а раннее выявление заболевания и эффективность лечения значительно улучшились благодаря внедрению программ скрининга и генетических тестов. Факторы риска включают генетическую предрасположенность (мутации BRCA1/2), гормональный дисбаланс, образ жизни и факторы окружающей среды. Основными методами диагностики являются маммография, ультразвуковое исследование и биопсия, а хирургическое вмешательство, лучевая терапия, химиотерапия, гормональная и таргетная терапия применяются в качестве комплексного подхода к лечению. В статье также подчеркивается важность профилактических мероприятий и программ скрининга, реализуемых в рамках стратегии «Узбекистан-2030» в системе здравоохранения Узбекистана. Результаты исследования свидетельствуют о необходимости адаптации инновационных технологий и международного опыта к местным условиям в области раннего выявления и лечения рака молочной железы.

Ключевые слова: рак молочной железы, женская онкология, эпидемиология, факторы риска, маммография, скрининг, генетические мутации, BRCA1/2, диагностика, хирургическое лечение, химиотерапия, гормональная терапия, таргетная терапия, профилактика, Узбекистан, здравоохранение.

Abstract: Breast cancer is one of the most common oncological diseases among women globally and is also a significant problem in the healthcare system in Uzbekistan. This article provides a scientifically based analysis of the epidemiology, etiological factors, diagnostic methods, and modern approaches to treatment of breast cancer. According to data, 4,454 new cases were recorded in Uzbekistan in 2020, and early detection and treatment effectiveness have significantly improved with the introduction of screening programs and genetic tests. Among the risk factors, hereditary predisposition (BRCA1/2 mutations), hormonal imbalance, lifestyle, and environmental factors play an important role. Mammography, ultrasound, and biopsy are used as the main methods in diagnostics, while surgery, radiation, chemotherapy, hormonal, and targeted therapies are used as an integrated approach in treatment. The article also highlights

the importance of preventive measures and screening programs implemented within the framework of the Uzbekistan-2030 strategy in the Uzbek healthcare system. The results of the study indicate the need to adapt innovative technologies and international experience to local conditions in the early detection and treatment of breast cancer.

Keywords: breast cancer, women's oncology, epidemiology, risk factors, mammography, screening, genetic mutations, BRCA1/2, diagnostics, surgical treatment, chemotherapy, hormonal therapy, targeted therapy, prevention, Uzbekistan, healthcare.

Language: Uzbek

Citation: Odilova , Y., & Akhmedov , A. (2025). BREAST CANCER DISEASES IN WOMEN. Universal International Scientific Journal, 2(4), 157–166. Retrieved from <https://universaljournal.uz/index.php/jurnal/article/view/1512>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15274909>

Copyright © 2025 by author(s) and Scientific Research Publishing Inc. This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0). <http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

Kirish

Dunyo bo'yicha statistik ma'lumotlarga qaraganda, har kuniga o'rtacha 1 300 dan ortiq ayollar ko'krak bezi saratoni tufayli hayotdan erta ko'z yummoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST)ning 2020-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, har yili dunyo bo'yicha 2,3 milliondan ortiq ayolga ushbu xavfli kasallik tashxisi qo'yiladi. Ko'krak bezi saratoni bugungi kunda ayollar orasida eng ko'p uchraydigan va o'limga olib keluvchi saraton turlaridan biri hisoblanadi. Ayni yili bu kasallik sababli 685 mingdan ziyod ayollar hayotdan ko'z yumgan.

Ko'krak bezi saratoni nafaqat ayollarning jismoniy sog'ligiga, balki ularning ruhiy holatiga, ijtimoiy faolligiga va oilaviy hayotiga ham katta ta'sir

ko'rsatadi. Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda erta diagnostika va zamonaviy davolash usullarining yo'lga qo'yilgani tufayli bu kasallikdan omon qolish ko'rsatkichlari oshgan bo'lsa-da, rivojlanayotgan va past daromadli mamlakatlarda bu muammo hanuz dolzarb bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda esa ko'krak bezi saratoni yil sayin kengayib borayotgan jiddiy tibbiy va ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining ma'lumotlariga ko'ra, har yili 4 mingdan ortiq ayolda bu kasallik aniqlanmoqda. Eng achinarlisi, ularning katta qismi kasallikning 2 yoki 3-bosqichida shifokorga murojaat qilishadi.

Bu esa davolash samaradorligini kamaytiradi va hayot uchun xavf darajasini oshiradi.

Kasallikning keng tarqalishiga asosiy sabablar sifatida ayollarning sogʻligʻiga befarqligi, profilaktik koʻriklarga eʼtiborsizlik, tibbiy madaniyatning pastligi hamda baʼzi hollarda ijtimoiy uyaliq holatlari koʻrsatiladi. Koʻkrak bezi saratoniga qarshi kurashishda erta tashxis qoʻyish, aholi xabardorligini oshirish va sogʻlom turmush tarzini shakllantirish muhim oʻrin tutadi.

Ushbu maqolada koʻkrak bezi saratonining sabablari, xavf omillari, alomatlari, tashxislash va davolash yoʻllari, shuningdek, uni oldini olish choralari haqida toʻliq maʼlumot beriladi.

Koʻkrak bezi saratonining sabablari va xavf omillari

Irsiy (nasliy) omillar

Eng asosiy genetik xavf BRCA1 va BRCA2 genlaridagi mutatsiyalardir. Ular sogʻlom hujayralarni himoya qilish oʻrniga, notoʻgʻri boʻlsa, saratoni rivojlanishiga imkon beradi.

Agar oilada onada, opada, buvijonda, xolada yoki togʻada koʻkrak yoki tuxumdon saratoni boʻlgan boʻlsa, ehtimol kelgusi avlodlarda ham kuzatilishi mumkin.

Genetik test orqali bu xavfni erta aniqlash mumkin.

Gormonlar bilan bogʻliq omillar

Estrogen — ayollar gormoni. Koʻkrak toʻqimalariga bevosita taʼsir

qiladi. Tanada uzoq vaqt davomida yuqori boʻlishi saraton xavfini oshiradi.

Koʻp yillar davomida tugʻmaslik, emizmaslik yoki gormonli dorilarni koʻp ichish bu holatni kuchaytiradi.

Shuningdek, polikistik tuxumdon sindromi, giperestrogeniya kabi kasalliklar ham estrogen miqdorini oshiradi.

Reproduktiv tarix

Erta hayz (12 yoshdan oldin) va kech menopauza (55 yoshdan keyin) boʻlsa, tanada estrogen koʻp vaqt ushlanib qoladi.

Farzand koʻrmagan ayollar yoki kech tugʻganlar (30 yoshdan keyin) koʻproq xavf ostida.

Emizish muddati qancha uzoq boʻlsa, xavf shuncha kamayadi — chunki emizish gormonlarni tabiiy tarzda muvozanatlashtiradi.

Tashqi omillar va hayot tarzi

Chekish va spirtli ichimliklar — koʻkrak hujayralarining tuzilishini oʻzgartirib, saratoni keltirib chiqarishi mumkin.

Notogʻri ovqatlanish — yogʻli, qayta ishlangan, konservali mahsulotlar, goʻsht mahsulotlarini ortiqcha isteʼmol qilish.

Jismoniy harakatsizlik — ortiqcha vazn estrogen miqdorini oshiradi, bu esa xavfni kuchaytiradi.

Stress — surunkali kuchli stress gormonlar balansi va immunitet tizimiga salbiy taʼsir koʻrsatadi.

Radiatsion taʼsir

Yoshligida (masalan, limfoma uchun) koʻkrak sohasiga nisbatan

radiatsion muolajalar olganlar ko'proq xavf ostida bo'ladi.

Radiatsiya hujayra DNKsini shikastlab, noto'g'ri bo'linishlarni keltirib chiqaradi.

Sun'iy gormonlar va dorilar

Menopauzadan keyin estrogenga asoslangan gormonal terapiya uzoq vaqt davom etsa, xavf ortadi.

Ba'zi turdagi tug'ilishdan saqlovchi dorilarni (oral kontraseptivlar) uzoq yillar davomida ichish ham xavf omillaridan biri sanaladi.

Ko'krak to'qimasining zichligi

Ba'zi ayollarning ko'krak bezlari tabiatan zich bo'ladi — ya'ni yog' qatlamidan ko'ra ko'proq bezli va tolali to'qimalardan iborat.

Bunday holatda saratonni erta aniqlash qiyin bo'ladi, shuningdek, u o'zidan o'zi xavfni ham oshiradi.

Oldin ko'krakda kasallik bo'lgan bo'lsa

Avval benign (yaxshi sifatli) ko'krak o'smasi yoki displaziya bo'lgan bo'lsa, u ham xavfni oshirishi mumkin.

Ayniqsa, "atipik giperplaziya" deb ataladigan holatlar saratonga aylanish ehtimoli yuqori.

Nisbatan kam uchraydigan, lekin mavjud xavf omillari:

Tungi ish rejimi (shift work) — kechasi ishda bo'lish melatonin gormonini kamaytiradi, bu esa ko'krak hujayralarining saratonlanishiga olib kelishi mumkin.

Kimyoviy moddalarga ta'sir — ayrim kosmetika, plastmassa idishlar, kimyoviy tozalagichlar tarkibidagi bisfenol A (BPA) va ftalatlar gormonlarga o'xshash ta'sir ko'rsatib, xavfni oshiradi.

Yuqori bo'y uzunligi — genetik va gormonal sabablar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Kech hayz davrida og'riq kuchli bo'lishi — bu ham ba'zan gormonal nomutanosiblik alomati bo'lishi mumkin.

Ko'krakdagi o'zgarishlar:

Ko'krak tugunak (massalar) yoki shish:


Ko'krakdagi tugunak (massalar) eng ko'p uchraydigan alomatlardan biridir. Bu tugunak ko'krakning har qanday qismini, shu jumladan qo'ltiq ostini ham egallashi mumkin.

U odatda qattiq va harakatsiz bo'ladi. Og'riqsiz bo'lishi mumkin, lekin ba'zi hollarda og'riq sezilishi mumkin.

Ko'krak hajmi yoki shaklining o'zgarishi:

Ko'krakning bir tomoni kattalashishi yoki kichrayishi mumkin.

Ko'krakning shakli o'zgarishi mumkin: yuqori yoki pastga osilish, to'liq yoki notekis ko'rinish.



Ko'krak terisining o'zgarishi:

Teri ustida apelsin po'stlog'i kabi g'adir-budirliklar paydo bo'lishi mumkin.

Ko'krak terisi qizarishi, shishishi, issiqlik sezilishi mumkin.

Teri mustahkamlanishi yoki burmalanishi ham mumkin.

So'rg'ich (bradavitsa)dagi o'zgarishlar:

So'rg'ich ichkariga kirib ketishi yoki shaklining o'zgarishi. So'rg'ichdan qonli yoki suyuqlik ajralishi (sariq, yashil yoki qon aralash suyuqlik). Og'riq yoki noqulaylik: Ko'krakdagi og'riq ko'pincha saraton bilan bog'liq bo'lmaydi, ammo ayrim hollarda og'riq sezilishi mumkin.

Og'riq ko'krakning o'ziga yoki uning atrofidagi hududlarga tarqalishi mumkin. Ba'zan og'riq bitta ko'krakda va qo'ltiq ostida bo'ladi. Limfa tugunlari o'zgarishi:

Limfa tugunlari o'zgarishi. Qo'ltiq osti limfa tugunlarining kattalashishi: Ko'krak bezi saratoni boshlanganda, saraton hujayralari limfa tugunlariga tarqalishi mumkin.

Kattalashgan limfa tugunlari og'riqsiz bo'lishi mumkin, lekin ba'zi hollarda sezuvchanlik yoki og'riq bo'lishi mumkin.

Bo'yindagi limfa tugunlarining kattalashishi: Ko'krak bezi saratoni bo'lsa, bo'yinda ham kattalashgan limfa tugunlarini sezish mumkin.

Noto'g'ri yoki anormal ko'krak so'rg'ichidan ajralmalar: Suyuqlik ajralishi:

So'rg'ichdan shaffof, sariq yoki yashil suyuqlik ajralishi, ba'zan esa qon aralash suyuqlik bo'lishi mumkin.

Bu saratonning muhim belgilaridan biri bo'lishi mumkin, lekin u boshqa kasalliklar bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin, masalan, mastit yoki benign o'zgarishlar.

Kechki alomatlar: Issiqlik va shish:

Ko'krak bezi saratonining ba'zi shakllari (masalan, yallig'lanishli turdagi saraton) ko'krakda issiqlik, qizarish va shishishga olib kelishi mumkin.

Bu holat odatda infeksiyaga o'xshaydi, lekin antibiotiklar yordam bermaydi. Charchoq va holsizlik: Saratonning ilg'or bosqichlarida, charchoq va umumiy holsizlik bo'lishi mumkin. Bu holat ko'krak bezi saratonining tana orqali tarqalganligini ko'rsatuvchi alomatlardan biri bo'lishi mumkin.

Boshqa alomatlar: Og'riqli yoki qattiq ko'krak: Ba'zi hollarda, ko'krakdagi o'zgarishlar og'riqni keltirib chiqarishi mumkin. Og'riq ko'krakning o'zida yoki uning atrofida sezilishi mumkin.

Nafas qisishi yoki nafas olishda qiyinchilik: Agar saraton o'pka yoki boshqa organlarga tarqalgan bo'lsa, nafas olishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

Kechki alomatlar va metastazlar: Suyaklarda og'riq: Agar saraton suyaklarga tarqalgan bo'lsa, bu suyaklarda og'riq yoki sezuvchanlik keltirib chiqarishi mumkin.


Jigar yoki o'pka metastazlari:

Jigar yoki o'pka metastazlarida terining sarg'ayishi yoki o'pka og'rig'i bo'lishi mumkin.

Ratsional alomatlar: Anemiya (kamqonlik): Ko'krak bezi saratoni davomida kamqonlik bo'lishi mumkin, bu esa o'zini charchoq, bosh aylanishi va og'ir nafas olishda ko'rsatiladi.

O'zgargan ishtaha va og'irlik: Ishtahaning pasayishi va noaniq vazn yo'qotish ko'krak bezi saratoni belgilari bo'lishi mumkin.

Ko'krak bezi saratonini tashxislash usullari



O'z-o'zini tekshirish (har oy):

Har oyning bir xil kunida (odatda hayzdan keyin 5-7-kuni) ko'krakni qo'l bilan tekshirib ko'rish.

Shish, qattqlik, tuzilmaning o'zgarishi, og'riq yoki suyuqlik chiqishi bor-yo'qligini kuzatish.

Shifokor tomonidan ko'rik:

Ginekolog yoki mammolog har 6 oyda yoki yilda bir marta ko'krakni ko'rikdan o'tkazadi.

Shish, yallig'lanish, limfa tugunlari kattalashuvi aniqlansa, qo'shimcha tekshiruvlar tavsiya etiladi. Mammografiya (rengen tekshiruv): 40 yoshdan keyin har 1-2 yilda bir marta bajariladi. Shishlarni erta bosqichda aniqlash imkonini beradi.

Ultratovush (UZI): Ayniqsa, 40 yoshgacha bo'lgan ayollar uchun mos.

Ko'krakdagi o'zgarishlarni, zichlikni va kistalarni aniqlashda yordam beradi. Biopsiya: Shubhali o'simtadan namunalari olinadi va laboratoriyada tekshiriladi. Bu usul orqali o'simtaning yaxshi yoki yomon (saron) ekanligi aniqlanadi. MRI (magnit-rezonans tomografiya): Murakkab holatlarda yoki yuqori xavf guruhidagi ayollar uchun qo'llaniladi. Ko'krak bezi saratoni davolash usullari: Ko'krak saratonini davolash saratonning turi, bosqichi, ayolning yoshi, sog'ligi va boshqa omillarga qarab belgilanadi. Asosiy davolash usullari quyidagilardan iborat:

Jarrohlik (operatsiya).

Lumpektomiya (ko'krakni saqlovchi operatsiya): Faqat saraton to'qimasi va uning atrofidagi ozgina sog'lom to'qima olib tashlanadi. Mastektomiya: To'liq bir ko'krak bezi olib tashlanadi. Linf tugunlarini olib tashlash: Saraton limfa tugunlariga tarqalgan bo'lsa, ularni ham olib tashlash kerak bo'ladi.

Radiatsion terapiya (nurlantirish).

Jarrohlikdan keyin saraton hujayralarini butkul yo'qotish maqsadida qo'llaniladi.

Ko'krak yoki qo'ltiq osti sohalariga beriladi. Kimyoterapiya: Kuchli dorilar yordamida saraton hujayralarini o'ldirish.

Jarrohlikdan oldin (neoadjuvant) yoki keyin (adjuvant) qo'llaniladi.

Agar saraton rivojlangan yoki boshqa joylarga tarqalgan bo'lsa, asosiy davolash usuli hisoblanadi.

Gormonal terapiya (Endokrin davolash). Agar saraton estrogen yoki progesteronga sezgir bo'lsa (gormon retseptor-musbat bo'lsa), bu usul qo'llaniladi. Tamoxifen, aromataza inhibitörleri kabi dori vositalari ishlatiladi. Maqsadli (targeted) terapiya

Saraton hujayralarining ma'lum genetik xususiyatlariga qarshi qaratilgan davo. Masalan, HER2-musbat saratonlarda Trastuzumab (Herceptin) ishlatiladi.

Immunoterapiya Ba'zi hollarda, immunitet tizimini faollashtirib, saraton hujayralarini yo'q qilish maqsadida qo'llaniladi.

Ko'krak bezi saratonining oldini olish choralari:

1. Sog'lom turmush tarzini olib borish. Ortiqcha vazndan saqlanish: Ortiqcha tana vazni, ayniqsa menopauzadan keyin, ko'krak bezi saratoni xavfini oshiradi.

Jismoniy faollik: Haftasiga kamida 150 daqiqa o'rtacha darajadagi yoki 75 daqiqa yuqori darajadagi jismoniy faollik tavsiya etiladi.

To'g'ri ovqatlanish: Meva, sabzavot, butun don mahsulotlari, kam yog'li sut mahsulotlari, baliq va yong'oqlar

iste'molini ko'paytirish. Yog'li, qovurilgan, qayta ishlangan ovqatlardan cheklanish.

2. Alkogol va chekishdan voz kechish.

Alkogolni cheklash: Har kuni 1 porsiyadan ortiq ichimlik ichish ko'krak bezi saratoni xavfini oshiradi. Chekish: Ayniqsa erta yoshda chekish ko'krak bezi saratoni xavfini oshiradi. Umuman chekishdan saqlanish eng to'g'ri yo'l.

3. Reproktiv sog'liqni boshqarish.

Homiladorlik va emizish: 30 yoshgacha homiladorlik va uzoq muddatli emizish (1 yil yoki ko'proq) ko'krak bezi saratonidan himoyalovchi omillar hisoblanadi.

Gormonal terapiyani nazorat qilish: Menopauzadan keyingi gormonal terapiyani uzoq muddat davom ettirish (5 yildan ortiq) xavfni oshiradi. Faqat shifokor nazorati ostida qo'llash kerak.

4. Saratonni erta aniqlash (skrining).

O'z-o'zini tekshirish: Har oy hayz tugaganidan 7–10 kun o'tib, ko'kraklarni o'z-o'zidan tekshirish.

Shifokor ko'rigiga borish: Har yili bir marta mammolog yoki ginekolog tomonidan ko'rikdan o'tish.

Mammografiya: 40 yoshdan boshlab har 1-2 yilda bir marta mammografiya qilish (agar oilaviy tarixda kasallik bo'lsa, ertaroq).

Xulosa

Ko'krak bezi saratoni bugungi kunda dunyo miqyosida millionlab ayollar hayotiga tahdid solayotgan jiddiy

kasalliklardan biridir. Bu maqolani yozish davomida men ushbu dardning sabablari, rivojlanish bosqichlari, alomatlari, tashxis qo'yish usullari va samarali davolash yo'llari haqida chuqur o'rgandim. Ayniqsa, profilaktika va erta tashxis qo'yishning naqadar muhimligi meni yanada hushyorlikka undadi.

Ma'lum bo'lishicha, ko'krak bezi saratoni ko'plab omillar — irsiy moyillik, gormonal o'zgarishlar, noto'g'ri turmush tarzi, zararli odatlar va atrof-muhit ta'siridan kelib chiqadi. Ammo shuni bilish muhimki, bu kasallik oldini olish va erta aniqlash orqali samarali tarzda nazorat ostiga olinishi mumkin. Ayollar uchun o'z salomatligiga e'tiborli bo'lish, har oy ko'krakni o'z-o'zidan tekshirish, shifokor ko'rigidan muntazam o'tish va sog'lom hayot tarziga amal qilish – bu kasallikdan himoyalashning eng muhim kalitidir.

Mening fikrimcha, har bir ayol o'z tanasi va sog'lig'iga e'tiborli bo'lishi

kerak. Bu faqat o'zimiz uchun emas, balki yaqinlarimiz, farzandlarimiz, oilamiz uchun ham juda muhimdir. Afsuski, ko'pchilik ayollar og'riq sezmaguncha yoki kasallik og'irlashmaguncha tibbiy ko'rikka bormaydi. Bu esa juda katta xato. Chunki saratonning ilk bosqichlarida u deyarli sezilmaydi, lekin aynan o'sha pallada uni aniqlab, davolash imkoniyati eng yuqori bo'ladi.

Yakuniy xulosa sifatida aytmoqchimanki, ko'krak bezi saratoni haqida xabardorlik – bu o'zimizni himoya qilish yo'lidagi birinchi va eng muhim qadamdir. Har bir ayol bu mavzuga jiddiy qarashi, o'z va boshqa ayollar hayotiga befarq bo'lmasligi kerak. Sog'lom jamiyat – sog'lom ayollardan boshlanadi. Shuning uchun har bir ayol o'z sog'lig'iga e'tiborli bo'lishi, bilimli, ogoh va faol bo'lishi lozim deb hisoblayman.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bray, F., Ferlay, J., Soerjomataram, I., Siegel, R. L., Torre, L. A., & Jemal, A. (2020). Global cancer statistics 2020: GLOBOCAN estimates of incidence and mortality worldwide for 36 cancers in 185 countries. *CA: A Cancer Journal for Clinicians*, 70(4), 313-341. <https://doi.org/10.3322/caac.21660>
2. Sung, H., Ferlay, J., Siegel, R. L., Laversanne, M., Soerjomataram, I., Jemal, A., & Bray, F. (2021). Global cancer statistics 2020: Breast cancer incidence and mortality trends. *The Lancet Oncology*, 22(5), e235-e245. [https://doi.org/10.1016/S1470-2045\(21\)00078-6](https://doi.org/10.1016/S1470-2045(21)00078-6)
3. Narod, S. A., & Foulkes, W. D. (2004). BRCA1 and BRCA2: 1994 and beyond. *Nature Reviews Cancer*, 4(9), 665-676. <https://doi.org/10.1038/nrc1431>
4. Tillyashaykhov, M. N., & Yusupbekov, A. A. (2022). Breast cancer epidemiology and screening programs in Uzbekistan: Current challenges and perspectives. *Central Asian Journal of Medical Sciences*, 8(2), 45-53.
5. Harbeck, N., & Gnant, M. (2017). Breast cancer: Advances in diagnosis and treatment. *The Lancet*, 389(10074), 1134-1150. [https://doi.org/10.1016/S0140-6736\(16\)32492-2](https://doi.org/10.1016/S0140-6736(16)32492-2)
6. World Health Organization. (2023). Breast cancer: Early diagnosis and screening. Retrieved

from <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/breast-cancer>

7. Yusupov, S. R., & Rakhimov, N. M. (2021). Implementation of mammography screening in Uzbekistan: Results and challenges. *Journal of Oncology and Radiology of Uzbekistan*, 15(3), 22-29.

8. Cardoso, F., Kyriakides, S., Ohno, S., Penault-Llorca, F., Poortmans, P., Rubio, I. T., ... & ESMO Guidelines Committee. (2019). Early breast cancer: ESMO Clinical Practice Guidelines for diagnosis, treatment and follow-up. *Annals of Oncology*, 30(8), 1194-1220. <https://doi.org/10.1093/annonc/mdz173>

9. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. (2023). “O‘zbekiston-2030” strategiyasi doirasida onkologik kasalliklarni erta aniqlash dasturlari. Tashkent: Sog‘liqni saqlash vazirligi nashriyoti.

10. Gradishar, W. J., Anderson, B. O., Balassanian, R., Blair, S. L., Burstein, H. J., Cyr, A., ... & Kumar, R. (2020). NCCN Guidelines Insights: Breast cancer, Version 3.2020. *Journal of the National Comprehensive Cancer Network*, 18(4), 452-478. <https://doi.org/10.6004/jnccn.2020.0016>